

**PROFILAKTIKANING NAZARIY NEGIZLARI: UMUMIY-MAXSUS-YAKKA
PROFILAKTIKA MEXANIZMLARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI****Xurramov Alisher Suyunovich**

©O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi Universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18379108>

Annotatsiya. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy asoslari, xususan, umumiy-maxsus-yakka profilaktika mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ushbu uch pog'onali iyerarxiyaning dialektik uyg'unligi profilaktikaning faqat doktrinal tushuncha sifatida emas, balki amalda ishlaydigan me'yoriy mexanizm sifatida shakllanishi nuqtai nazaridan asoslantiriladi. Tahlil jarayonida milliy qonunchilikda profilaktika munosabatlarini tartibga solishda tushunchalar bir xil emasligi, profilaktika turlari o'rtasida "o'tish nuqtalari"ning aniq mezonlari yetishmasligi kabi muammolarga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, riskni baholash standartiga tayangan qaror qabul qilish modeli, idoralararo keys-menejment (koordinator instituti), KPI asosida monitoring hamda yagona elektron axborot tizimini joriy etish orqali profilaktikaning manzilliligi va hisobdorligini kuchaytirish yo'nalishlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: umumiy profilaktika; maxsus profilaktika; yakka profilaktika; riskni baholash; risk guruhi; keys-menejment; keys-menejer (koordinator); erta intervensiya; diversiya; KPI; monitoring; elektron axborot tizimi.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФИЛАКТИКИ: ВЗАИМОСВЯЗЬ
ОБЩЕСТВЕННО-СПЕЦИФИЧЕСКО-ИНДИВИДУАЛЬНЫХ
ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ**

Аннотация. В статье представлен научно-теоретический анализ теоретических основ профилактики преступности, в частности, взаимозависимости обще-специальных-индивидуальных профилактических механизмов. Дialeктическая гармония этой трехуровневой иерархии обосновывается с точки зрения формирования профилактики не только как доктринального понятия, но и как нормативного механизма, работающего на практике. В процессе анализа уделяется внимание таким проблемам, как отсутствие единообразия понятий в регулировании профилактических отношений в национальном законодательстве, отсутствие четких критериев «переходных точек» между видами профилактики. Одновременно выявляются направления усиления адресности и подотчетности профилактики путем внедрения модели принятия решений на основе стандарта оценки риска, межведомственного ведения дел (координационного института), мониторинга на основе КПИ и единой электронной информационной системы.

Ключевые слова: общая профилактика; специальная профилактика; индивидуальная профилактика; оценка риска; группа риска; ведение случая; координатор случая; раннее вмешательство; перенаправление; ключевые показатели эффективности; мониторинг; электронная информационная система.

**THEORETICAL FOUNDATIONS OF PREVENTION: THE INTERRELATION OF
GENERAL, SPECIAL AND INDIVIDUAL PREVENTION MECHANISMS.**

Abstract. This paper examines the theoretical foundations of offence prevention, focusing on the systemic interrelation between general, special and individual prevention as a coherent three-tier model. It argues that the dialectical linkage among these levels should be operationalized not only in doctrine but also through enforceable regulatory mechanisms that

ensure targeted, proportionate and measurable preventive interventions. The analysis highlights key challenges in the national legal framework, including fragmented terminology, inconsistent articulation of prevention types, and the lack of clear transition criteria between prevention levels. As practical solutions, the paper substantiates: a unified risk assessment standard; interagency case management based on the “one case — one plan — one coordinator” principle; KPI-based monitoring and accountability; and the establishment of a unified electronic information system with mandatory safeguards for confidentiality and personal data protection.

Keywords: general prevention; special prevention; individual prevention; risk assessment; risk group; case management; case coordinator; early intervention; diversion; KPI; monitoring; unified electronic information system.

O‘zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish masalasi Prezident Sh. Mirziyoyev rahnamoligida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar mantiqiy davomiylikka ega bo‘lib, xususan, 2017 yil 14 martdagi PQ–2833-son qarorda profilaktika tizimining bir qator *tizimli kamchiliklari* ochiq ko‘rsatib berilgan. Bular: profilaktika sub’yektlari ish shakli va uslublarining hozirgi kun talablariga to‘liq javob bermasligi, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarlicha foydalanilmayotgani profilaktikaga faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar vazifasi sifatida qarash oqibatida kompleks yondashuvning susayishi, chora-tadbirlarning manzilli emasligi va idoralararo hamkorlikning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani kabi holatlar tizimni tubdan takomillashtirish zaruratini belgilab bergan¹.

Aynan shu dolzarblik 2025 yil 3 yanvarda qabul qilingan PQ–1-son qaror² mazmunida yangi bosqichda ifodasini topdi. Jumladan, hujjatda “*har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish*” 2025 yil uchun ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mahallalarda xavfsiz muhit yaratishning tashkiliy-profilaktik asoslarini zamon talablariga moslashtirish, qonunbuzilishlarning *asl omillarini o‘z vaqtida aniqlash va ularni kompleks hamda manzilli choralar* bilan bartaraf etish orqali barvaqt profilaktika samaradorligini oshirish “*dolzarb vazifa*” sifatida qayd etilgan. Shuningdek, profilaktikaga *zamonaviy raqamli texnologiya va texnik vositalarni keng joriy etish*, natija uchun *qat’iy so‘rov (hisobdorlik) tizimini* yo‘lga qo‘yish, dastur va “*yo‘l xaritalari*” orqali ijroni manzilli tashkil etish hamda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish uchun rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda ayrim vakolatli idoralar profilaktika ishini faqat huquqni muhofaza organlari vazifasi deb baholagani, profilaktika choralari aniqlik va manzillilikka ega emasligi, huquqbuzarliklarning tizimli sabablarini bartaraf etish yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagani ko‘rsatib o‘tildi. Shu munosabat bilan, mazkur qaror bilan har haftaning payshanba kuni “*Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni*” etib belgilanishi kabi muhim tashkiliy yangilik joriy

¹ Мирзиёев Ш.М. “Хуқукбuzарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ ПҚ-2833-сон Қарори // <https://lex.uz/docs/3141186>

² Мирзиёев Ш.М. “2025 йилда республика маҳаллаларида хавфсиз муҳитни яратиш ва хуқукбuzарликларнинг барвақт олдини олиш тизими самарадорлигини янада ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ - 1-сон Қарори // <https://lex.uz/uz/docs/7330260>

etildi³. Profilaktika sohasida davlat organlari va jamoat tuzilmalarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, profilaktika jarayoniga mahalla va ta'lim muassasalarini, yoshlar ittifoqini keng jalb etish vazifalari belgilandi. Shu tariqa, yoshlar huquqbuzarliklarining oldini olish borasida kompleks yondashuv va islohotlar uchun mustahkam siyosiy asos yaratildi. Quyida huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy negizlari hamda umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika tushunchalari, ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Jumladan, kriminologiya fanida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi deganda jamiyat miqyosida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini barataraf etishga qaratilgan keng qamrovli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi⁴. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi *"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"*gi Qonunida umumiy profilaktika *"huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organ hamda muassasalar tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan faoliyat"* sifatida ta'riflangan⁵. Mazkur tushuncha ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida jinoyatchilikka qarshi immunitetni mustahkamlash, yoshlarning tarbiyasi, bandligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlar kabi keng ko'lamli profilaktik tadbirlarni o'z ichiga oladi. Masalan, BMT va xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, jamiyatda qashshoqlik, ishsizlik, giyohvandlik kabi jinoyatlarga olib keluvchi omillarni kamaytirish, yoshlarga sog'lom turmush tarzini targ'ib etish eng samarali umumiy profilaktik choralar sirasiga kiradi⁶. Italiya ma'rifatparvari Ch.Bekkeriya bundan ikki asr muqaddam *"Jinoyatlarning oldini olish – ularni jazolashdan afzaldir"* deya ta'kidlagan edi⁷. Bugungi kunda ham ko'plab kriminologlar umumiy profilaktikani jinoyatchilikka qarshi kurashning eng ustuvor va samarali yo'li, deb hisoblashadi⁸. Jumladan, rus olimasi A.I. Dolgovaning qayd etishicha, umumiy profilaktika uzoq muddatli istiqbolda jinoyatchilikni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuini anglatadi – iqtisodiyotni mustahkamlash, aholini ish o'rinlari bilan ta'minlash, kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish, yoshlarni ma'rifat va sportga jalb etish, spirtli ichimliklar va giyohvandlikka qarshi targ'ibot shular jumlasidandir⁹. Shu bois, umumiy profilaktika butun jamiyat miqyosida amalga oshiriladigan preventiv siyosat bo'lib, unda hukumatning barcha tuzilmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, mahallalar va ta'lim muassasalari ishtirok etadi¹⁰. S.B. Xo'jaqulov umumiy profilaktikani huquqbuzarliklar profilaktikasining birinchi bosqichi deb atab, uning maqsadini "jamiyatda insonlarning munosib hayot kechirishi uchun qonuniy sharoitlar yaratish, fuqarolarning qonunga itoatkorligini

³ Мирзиёев Ш.М. "Хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ ПҚ-2833-сон Қарорининг 5-банди // <https://lex.uz/docs/3141186>

⁴ Википедии (свободная энциклопедия) *"Предупреждение преступности"* // <https://ru.wikipedia.org/>

⁵ Ўзбекистон Республикасининг "Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида"ги ЎРҚ-371-сон Қонунинг 22-моддаси // <https://lex.uz/docs/2387357>

⁶ Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. А. И. Долговой. 3-е изд., перераб. и доп. М., 2007. С. 442;

⁷ Беккариа Ч. О преступлениях и наказаниях. М., 1995. С. 123

⁸ Криминология: Учебник для вузов / Под общ. ред. А. И. Долговой. 3-е изд., перераб. и доп. М., 2007. С. 437; Криминология: Учебник / Под ред. В. Н. Кудрявцева, В. Е. Эминова. 3-е изд., перераб. и доп. М., 2005. С. 265; Криминология: Учебник / Под ред. Б. В. Коробейникова, Н. Ф. Кузнецовой, Г. М. Миньковского. М., 1988. С. 161; Криминология. М., 1979. С. 123; Курганов С. И. Криминология. М., 2007. С. 80.

⁹ Криминология: Учебник / Под ред. Н. Ф. Кузнецовой, В. В. Лунеева. 2-е изд., перераб. и доп. М., 2004. С. 194—195;

¹⁰ Предупреждение преступности // <https://spravochnick.ru/lektoriy/preduprezhdenie-prestupnosti/>

shakllantirish”dan iborat, deb ta’riflaydi¹¹. Darhaqiqat, umumiy profilaktika choralari nechog’lik muvaffaqiyatli bo’lsa, yoshlar o’rtasida huquqbuzarlik sodir etishga moyillik shunchalik pasayadi.

Maxsus profilaktika (yoki kriminologik profilaktika) esa jinoyatchilikning aniq turlari yoki alohida guruh huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tizimli choralarni anglatadi¹². Qonunchilikka ko’ra, maxsus profilaktika huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar tomonidan *ayrim turdagi huquqbuzarliklar* yoki *ayrim toifadagi shaxslarga* nisbatan, ularning sodir etilish sabab-sharoitlarini bartaraf etishga yo’naltirilgan alohida dasturlar va tadbirlar majmuidir. Masalan, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olish yoki giyohvandlikka oid huquqbuzarliklar profilaktikasi bo’yicha maxsus dasturlar ishlab chiqiladi. Maxsus profilaktika doirasida profilaktika subyektlari aniqlangan risk-guruh vakillari bilan ishlaydi, muayyan turdagi jinoyatlar ko’payishiga qarshi kompleks choralar ko’radi.

Shuningdek, kriminologik nazariyada maxsus profilaktika tadbirlari ikki yo’nalishga – erta ogohlantirish (*jinoyat sodir bo’lishi ehtimoli yuqori vaziyat va shaxslarga ularning sodir etilishidan oldinroq aralashish*) hamda *bevosita ogohlantirish* (allaqachon shakllangan kriminogen omillarni neytrallashtirish) yo’nalishlariga bo’linadi¹³. Ayni paytda, maxsus profilaktika jinoyatchilikning alohida turlari – masalan, korrupsiya, o’g’rilik, bezorilik kabi jinoyatlarga qarshi maxsus strategiyalar ishlab chiqishni ham o’z ichiga oladi. Ko’plab xorijiy mamlakatlar tajribasida *sektorlararo maxsus dasturlar* muhim o’rin tutadi. Masalan, AQShda voyaga yetmaganlar o’rtasida zo’ravonlikni kamaytirish bo’yicha Federal va shtat miqyosidagi “*Kompyuterlashtirilgan kuzatuv va tahlil*” dasturlari mavjud bo’lib, ularda huquqni muhofaza qilish, probatsiya, ta’lim va sog’liqni saqlash idoralari hamkorlikda ishlaydi¹⁴. Rossiyalik kriminalist olimlarining fikricha, maxsus profilaktika doirasidagi choralar aniq jinoyat turlari va konkret kriminogen guruhlariga qaratilgan bo’lib, ularni amalga oshirishda davlat va nodavlat, ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan ko’plab subyektlar hamkorlikda ishtirok etadi¹⁵. Maxsus profilaktika natijadorligi ko’p jihatdan umumiy profilaktika bilan uyg’unlikda, aniq maqsadli dasturlar sifatida amalga oshirilgandagina yuqori bo’ladi.

Yakka (individual) profilaktika esa huquqbuzarlik sodir etishi ehtimoli eng yuqori bo’lgan aniq shaxslar bilan manzilli ishlashga qaratilgan mexanizmlarni ifodalaydi. Bunday profilaktika turining ob’yekti huquqbuzarlikka moyil bo’lgan yoki allaqachon huquqbuzarlik sodir etgan alohida shaxslardir. Ilmiy adabiyotlarda “*yakka tartibdagi profilaktika*” atamasi asosan *ma’lum shaxsga nisbatan olib boriladigan tarbiyaviy, tuzatish va nazorat choralari*ni anglatadi¹⁶. Xususan,

Ch. Bekkariyaning “Jinoyat va jazo” nomli asarida “jinoyatning oldini olish rivojlangan jamiyatda haqiqiy yurisprudensiyadir”¹⁷ deyiladi. Shuningdek, mahalliy huquqshunos olimlardan

¹¹ Симонова С.С. “Теория и практика профилактики преступлений” // <https://docs.vlgr.ranepa.ru/>

¹² Ўзбекистон Республикасининг “*Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида*”ги ЎРҚ-371-сон Қонуннинг 24-моддаси // <https://lex.uz/docs/2387357>

¹³ Аванесов Г. А. Криминология. М., 1984. – С. 339.

¹⁴ Мирзиёев Ш.М. “Хуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ ПҚ-2833-сон Қарорининг 5-банди // <https://lex.uz/docs/3141186>

¹⁵ Гоголева, А. Я. Понятие профилактики и борьбы с преступностью / А. Я. Гоголева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 6.1 (65.1). — С. 3-7. — URL: <https://moluch.ru/archive/65/10456>.

¹⁶ Mirzatillayev U. I. “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish: milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili asosida” // kriminologiya xalqaro ilmiy-amaliy jurnal (№1 - 2025) 131-133-бетлар.

¹⁷ Криминология: Учебник. / Под ред.акад. В.Н.Кудрявцева, проф. В.Е.Эминова. – М., 1997. – С. 103.

I. Ismailov, Q.R. Abdurasulova, I.Yu. Fazilov “*jinoyatlarning profilaktikasi deganda, jinoyatlar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, tarbiyaviy-profilaktik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, tibbiy, psixologik, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlarining tizimi tushuniladi*” hamda “*milliy qonunchilik normalarining tahliliga tayanib aytish mumkinki, jinoyatlar profilaktikasi quyidagi turlardan iborat: 1) umumiy profilaktika; 2) maxsus profilaktika; 3) yakka tartibdagi profilaktika; 4) viktimologik profilaktika*”¹⁸ deb ta'kidlaydilar. Shuningdek, N.T. Ismoilov ham voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolarini o'rganib, voyaga yetmaganlar jinoyatlarining oldini olishni umumiy va yakka profilaktikaga bo'lish kerak¹⁹, degan fikrni bildiradi. Masalan, probatsiya nazorati ostidagi shaxs bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish, huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlarni ichki ishlar organlarining “profilaktik hisob”iga qo'yish, ular bilan psixologik va ijtimoiy maslahatlar olib borish – bular yakka profilaktika usullaridir. Shuningdek, N.T. Ismoilovning qayd etishicha, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini oldini olishda umumiy profilaktika bilan bir qatorda alohida *individual profilaktika ishi* juda muhim bo'lib, u bevosita tarbiyaviy ta'sir orqali voyaga yetmagan huquqbuzarlar xulqini tuzatishga qaratiladi. *Jinoyat huquqi nazariyasida* yakka profilaktika tushunchasi ko'pincha jazoni ijro etish orqali sodir etilgan jinoyatni takrorlashning oldini olish maqsadi bilan ham bog'lanadi. Masalan, O'zbekiston Jinoyat kodeksida jazoni tayinlashdan ko'zlangan maqsad shaxsni axloqan tuzatish va uning tomonidan yangi jinoyat sodir etilishini oldini olishdan iborat ekani belgilangan²⁰. Bu aslida jazoning shaxsga nisbatan *maxsus (individual) oldini olish* vazifasini ifodalaydi. Xususan, kriminologlar E. Q. Ferri va boshqa olimlar “*maxsus oldini olish*” (specific deterrence) atamasini aynan yakka tartibdagi profilaktikaga nisbat berib, muayyan shaxsning takror jinoyat sodir etmasligiga erishishni nazarda tutadilar²¹. Shu ma'noda, *yakka profilaktika* – huquqbuzarning shaxsiy xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirish, uni qayta tarbiyalash va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish tizimidir. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasini olib borishda ichki ishlar profilaktika inspektorlari, pedagog-psixologlar va voyaga yetmaganlar komissiyalari muhim rol o'ynaydi²².

Yuqoridagi tushunchalardan ko'rinib turibdiki, *umumiy, maxsus va yakka tartibdagi profilaktika* – huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining *turli bosqich va darajalaridir*. Ulardan har biri alohida vazifa va usullarga ega bo'lsa-da, aslida bir-birini to'ldiradi va bir-biriga uzviy bog'liqdir. Xususan, *umumiy (ijtimoiy) profilaktika* orqali yaratilgan sog'lom muhit va huquqiy ong maxsus va yakka profilaktika tadbirlari samaradorligi uchun zamin hozirlaydi. *Maxsus profilaktika* esa o'z navbatida umumiy profilaktikada erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, aniq xavf-xatar o'choqlarini bartaraf etadi. *Yakka profilaktika* orqali esa umumiy va maxsus profilaktikaning “*e'tiboridan chetda qolgan*” yoki ulardan foyda bo'lmagan individual holatlarga chuqur kirib boriladi. Shu bois, ilmiy-adabiyotlarda umumiy va maxsus profilaktika “*o'zaro bir-birini to'ldiruvchi faoliyat turlari*” ekani alohida ta'kidlanadi²³.

¹⁸ Ismailov I., Abdurasulova Q. R., Fazilov I. Yu. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – B 174–175.

¹⁹ Ismoilov N.T. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining individual oldini olish muammolari: Yurid. fan. nomz. ... dis. – T., 2006. –B. 21.

²⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Umumiy qism, birinchi bo'lim, umumiy qoidalar, 7-моддаси // <https://lex.uz/mact/-111453>

²¹ General deterrence vs. specific deterrence // <https://road-safety.transport.ec.europa.eu/>

²² Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir // <https://president.uz>

²³ <https://moluch.ru/archive/65>

Masalan, G'arb kriminologiyasida jinoyatchilikni oldini olish choralarini *birlamchi*, *ikkilamchi* va *uchlamchi* profilaktika darajalariga ajratish qabul qilingan bo'lib, bunda *birlamchi* (umumiy) daraja – butun populatsiyaga qaratilgan ijtimoiy oldini olish; *ikkilamchi* (maxsus) daraja – risk guruhlar va muayyan hududlarga yo'naltirilgan choralar; *uchlamchi* daraja esa – jinoyat sodir etgan shaxslarning takror jinoyat qilmasligini ta'minlash (yakka profilaktika) mazmunini anglatadi²⁴. Ko'rinib turibdiki, har uch daraja yaxlit holda qo'llangandagina kutilgan natija – jinoyatchilikning barqaror kamayishi va yoshlarning huquqbuzarliklarga moyilligining pasayishi ta'minlanadi. AQSh tajribasida ham jinoiy xatti-harakatlarning oldini olishda jamiyat va mahalliy hamjamiyatlarning roliga katta ahamiyat qaratilib, *“hamjamiyat politsiyasi”* va *“yoshlar justitsiyasi kengashlari”* orqali ko'p tarmoqli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xususan, AQShning *Voyaga yetmaganlar adliya va jinoyatchilik profilaktikasi* bo'yicha idorasi (OJJDP) *“jinoyatchilikning oldini olishda jamoalar bosh rolni o'ynaydi”* deb e'tirof etadi²⁵. Yevropa mamlakatlarida esa *“community policing”* (jamiyat bilan hamkorlikda politsiya faoliyati) konsepsiyasi keng joriy etilib, mahallalarda profilaktika inspektorlari fuqarolar bilan bevosita muloqotda bo'lib, profilaktikaning umumiy va yakka choralarini uyg'unlashtirmoqdalar.

O'zbekiston huquqiy tizimida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normalar ikki asosiy qonunda mujassamlashgan. Xususan, 2010-yil 29-sentabrdagi *“Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”*gi hamda 2014-yil 14-maydagi *“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”*gi Qonunlardir. Ushbu qonunlar mazmunan o'xshash sohaga qaratilgan bo'lsa-da, ularning o'zaro uyg'unlashmagani huquqiy bo'shliq va takrorlanish muammolarini keltirib chiqargan. Jumladan, 2010-yil 29-sentabrdagi Qonun voyaga yetmaganlar profilaktikasiga doir alohida maxsus qonun sifatida qabul qilingan va unda profilaktikaning faqat *“yakka tartibdagi profilaktika ishi”* tushunchasi alohida ajratib ta'riflangan edi²⁶. Ushbu qonunning 3-moddasida *“voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi – nazoratsizlik va qarovsizlikka sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi”* tarzida izoh berilgan. E'tibor qilinsa, ushbu ta'rifda ham umumiy (ijtimoiy) profilaktika va yakka profilaktika birgalikda tilga olinib, maxsus profilaktika atamasi umuman ishlatilmagan. Aksincha, 2014-yil 14 mayda qabul qilingan umumiy qonunda esa huquqbuzarliklar profilaktikasining umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik turlari mavjudligi tilga olinib²⁷, lekin qonun normalarida maxsus subyektlar vakolatlari asosan umumiy va maxsus profilaktika doirasida bayon etilgan. Masalan, ushbu qonunning 22-moddasida umumiy profilaktika, 24-moddasida maxsus profilaktika tushunchalari va asoslari huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo'lsa-da, *“yakka profilaktika”* tushunchasi alohida modda yoki bobda ochib berilmagan. Shunday qilib, 2010-yil 29 sentyabrdagi maxsus qonun faqat voyaga yetmaganlarga qaratilib, unda yakka profilaktika alohida urg'ulangan. Shuningdek, 2014-yil 14 maydagi qonun esa umumiy qamrovli bo'lib, profilaktika turlarini to'liqroq sanagan, ammo ularni tartibga solishda izchillik yetishmagan. Bu esa profilaktika turlarining huquqiy tafovutlariga va tushunchalarning yagona emasligiga olib kelgan.

²⁴ M C Stafford; M Warr “Reconceptualization of general and specific deterrence” // <https://www.ojp.gov/>

²⁵ Strengthen and Mobilize Communities // <https://ojjdp.ojp.gov/>

²⁶ Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги ЎРҚ-263-сон Қонуни // <https://lex.uz/docs/1685726>

²⁷ Ўзбекистон Республикасининг “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида”ги ЎРҚ-371-сон Қонуннинг 24-моддаси // <https://lex.uz/docs/2387357>

Yuqoridagi holat parlament va hukumat darajasida tan olinib, 2020–2022-yillarda ushbu ikki qonunni birlashtirish va takomillashtirish tashabbusi ilgari surildi. 2020-yil sentabr oyida Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi muhokamaga qo‘yilib, unda amaldagi ikki qonunni *yagona hujjatga birlashtirish* nazarda tutildi²⁸. Loyihada profilaktika sohasidagi *asosiy tushunchalar* doirasi kengaytirilib, “*ijtimoiy profilaktika*”, “*profilaktik suhbat*”, “*himoya orderi*” kabi yangi atamalar kiritildi²⁹. Shuningdek, profilaktikaning vazifalari, prinsiplari va turlari aniq bayon etilib, profilaktika subyektlarining vakolatlari batafsil taqsimlandi. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda *idoralararo komissiyalarning* roli alohida bobda belgilanishi taklif qilindi. Biroq, ushbu yangi qonun loyihasini muhokama qilish jarayonida ayrim normalarning boshqa qonunlarga nomuvofiqligi bo‘yicha e‘tirozlar bildirildi. 2022-yil dekabr oyida Oliy Majlis Senatida mazkur qonun loyihasi ko‘rib chiqilib, 8 bob, 88 moddadan iborat yangi tahrir muhokama qilindi³⁰. Senatorlar qonun matnida qator normalar amaldagi boshqa qonunlarga zid kelayotganini ta’kidlashdi. Masalan, loyihada sog‘liqni saqlash organlarining profilaktika sohasidagi vazifalari qatorida “*voyaga yetmaganlar o‘rtasida alkogol va tamaki iste‘moli profilaktikasi*” nazarda tutilgan edi, holbuki “*Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishini cheklash to‘g‘risida*”gi qonunda bunday profilaktika tadbirlari 21 yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan qo‘llanishi belgilangan, ya’ni yosh toifasida nomuvofiqlik mavjudligi qayd etildi³¹. Shu bois, voyaga yetmaganlar (18 yoshgacha) va 21 yoshgacha bo‘lgan shaxslar borasidagi normalarni uyg‘unlashtirish lozimligi ta’kidlandi. Yana bir misol, yangi loyihada “*voyaga yetmagan nazoratsiz shaxs*” tushunchasi berilgan bo‘lib, unda ota-onasining majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida xulqi nazoratsiz qolgan bola deb tarif berilgan. Senatorlar bu ta’rif O‘zbekiston Konstitutsiyasining 64-moddasida belgilangan ota-onaning burchlari bilan bog‘liq masalalarga to‘g‘ri kelmasligi mumkinligiga e‘tibor qaratib, uni qayta ko‘rib chiqish taklifini bildirishdi. Ko‘rinib turibdiki, milliy qonunchilikda profilaktika munosabatlarini tartibga solishda hali ham *tushunchalarning bir xillashtirilmagani*, ayrim normalarning boshqa qonunlar bilan kolliziyasi kabi muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi ilmiy nazariy qarashlar hamda amaldagi qonunlarning ilmiy tahlillari natijasida shu narsa ayon bo‘ldiki, O‘zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasini tartibga soluvchi normativ baza shaklan mavjud bo‘lsa-da, uning ichki mantiqiy uyg‘unligi va qo‘llanish mexanizmida qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, umumiy–maxsus–yakka profilaktika turlari qonunchilikda nomlanadi va umumiy tushunchalar darajasida ta’riflanadi, biroq ular o‘rtasidagi o‘tish nuqtalari, aniq mezonlar hamda qaror qabul qilish standartlari (*riskni baholash, dalilning minimal darajasi, qayta baholash muddatlari, chorani bekor qilish yoki kuchaytirish shartlari*) yetarlicha reglament qilinmagan. Shu sababli amaliyotda profilaktika choralari “manzillilik” tamoyiliga to‘liq mos kelmasdan, ayrim hollarda bir-birini takrorlaydi yoki aksincha, muayyan toifadagi shaxs va muhitlar profilaktika ta’siridan chetda qolib ketadi.

²⁸ Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi ikkita qonun bittaga birlashtiriladi // Loyiha Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va ikkita: 14.05.2014 yildagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” O‘RQ-371-son va 29.09.2010 yildagi “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida” O‘RQ-263-son amaldagi qonunlarni bir butunga birlashtiradi.

²⁹ Ўша манбаа: <https://kun.uz/68281880>

³⁰ “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning ayrim normalari senatorlar e‘tiroziga sabab bo‘ldi // <https://yuz.uz/uz/>

³¹ Senatning o‘ttiz oltinchi yalpi majlisida “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun ko‘rib chiqildi va “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning ayrim normalari senatorlar e‘tiroziga sabab bo‘ldi // <https://yuz.uz/uz/>

Bundan tashqari, 2010 yilgi voyaga yetmaganlar profilaktikasiga oid maxsus qonun hamda 2014 yilgi umumiy qonundagi tushunchaviy yondashuvlar va tartib-taomillar bir xil darajada uyg'unlashmagani oqibatida profilaktika sub'yektlari vakolatlari, mas'uliyat chegarasi va idoralararo hamkorlik modelini aniq belgilashda normativ noaniqlik yuzaga kelmoqda. Demak, kelgusi tahlilda mazkur huquqiy-metodik bo'shliqlar, kolliziyalar va ularning amaliy oqibatlarini muammolar tizimi sifatida yoritish ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy qarashlar hamda amaldagi qonunchilik normalarining mazmun-mantiqiy tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar siyosiy-huquqiy jihatdan izchil davom etgan bo'lsa-da, amalda profilaktika mexanizmlarining samaradorligiga ta'sir etuvchi bir qator *tizimli muammolar* saqlanib qolmoqda. Mazkur muammolar, avvalo, profilaktikaning umumiy-maxsus-yakka turlari o'rtasidagi funksional bog'liqlikni ta'minlovchi huquqiy-institusional "ko'priklar" yetarlicha mustahkamlanmagani, tushuncha va tartib-taomillarning birxil standartga solinmagani bilan izohlanadi. Shu ma'noda, takliflarda ilgari surilgan yo'nalishlar (institusional birlashtirish, vakolatlarni aniq belgilash, raqamlashtirish, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va xorijiy tajribani implementatsiya qilish) aynan quyidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan, deb baholash mumkin.

Birinchidan, profilaktika sohasidagi qonunchilikning *parchalanganligi va konseptual birxillikning yetishmasligi* muammosi mavjud. Amalda bir sohani tartibga soluvchi alohida qonun hujjatlarida tushunchalar apparati, yosh mezonlari, profilaktika turlarining mazmun-huquqiy chegaralari bir xil tarzda ifoda etilmagani sababli, huquqni qo'llash amaliyotida turlicha talqinlar paydo bo'ladi. Natijada profilaktikaning umumiy, maxsus va yakka mexanizmlari "*bir butun tizim*" sifatida emas, balki ayrim hollarda o'zaro takrorlanuvchi yoki bir-birini to'ldirmaydigan choralar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa huquqiy aniqlik va prognoz qilinish talablariga zid ravishda profilaktika faoliyatining institusional barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, profilaktika sub'yektlari o'rtasida *vakolatlar taqsimotining noaniqligi va idoralararo hamkorlikning institusional zaifligi* kuzatiladi. Profilaktika kompleks ijtimoiy-huquqiy siyosat bo'lgani holda, amalda "*kim nimaga mas'ul?*" degan masala hududlar kesimida bir xil hal etilmasligi mumkin. Hududiy muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar (kengashlar/komissiyalar)ning maqomi, qarorlar ijrosini ta'minlash mexanizmlari, hisobdorlik va nazorat tartiblari yetarlicha huquqiy mustahkamlanmagan sharoitda profilaktika choralari sektorlararo integratsiya o'rniga, ko'p hollarda idoralararo fragmentatsiyaga duch keladi. Oqibatda, *bir tomondan*, ayrim yo'nalishlarda chora-tadbirlar takrorlansa, *ikkinchi tomondan*, ayrim "*risk nuqtalari*"da profilaktika ta'siriga oid institusional vakuum shakllanishi ehtimoli ortadi.

Uchinchidan, profilaktika chora-tadbirlarining *manzilliligi va natijadorligini baholash mezonlarining yetarlicha shakllanmagani* muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda. Amaliyotda profilaktika faoliyati ko'p hollarda hisobot uchun bajariladigan tadbirlar ro'yxati ko'rinishiga kirib qolishi, ta'sirning real ijtimoiy natijasi esa o'lchanmay qolishi mumkin. Natijani baholashning aniq indikatorlari (*masalan, muayyan toifada takroriy huquqbuzarlik kamayishi, risk guruhining tarkibidagi dinamika, erta aniqlangan holatlar ulushi*) joriy etilmagani profilaktika siyosatini dalillarga asoslangan boshqaruv (evidence-based governance) mezonlaridan uzoqlashtiradi. Shu sababli resurslarni manzilli taqsimlash, mas'uliyatni adolatli belgilash va choralarning samarasini ilmiy asosda taqqoslash imkoniyati cheklanadi.

To'rtinchidan, profilaktika jarayonini zamonaviylashtirish uchun zarur bo'lgan raqamlashtirish va ma'lumot almashishning huquqiy-tashkiliy bazasi yetarli darajada standartlashmagan. Yagona axborot tizimlari, elektron monitoring, idoralararo integratsiya va ma'lumotlar bazalarining muvofiq ishlashi profilaktikaning barvaqt bosqichida risklarni aniqlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq ma'lumot almashish tartibi, kirish huquqlari, ma'lumotning maxfiyligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish standartlari yetarlicha aniq huquqiy reglamentga solinmagan sharoitda raqamli profilaktika "tizim" darajasiga ko'tarilmay, alohida lokal tashabbuslar darajasida qolib ketishi mumkin. Bu esa profilaktikaning analitik, prognoz va qayta baholash funksiyalarini susaytiradi.

Beshinchidan, ayniqsa yakka profilaktika doirasida inson huquqlari kafolatlarining prosesual jihatdan yetarli reglamentatsiya qilinmagani muammosi mavjud. Profilaktik hisob, ogohlantirish, nazorat tadbirlari qo'llanganda ularning asoslari, muddatlari, fuqaroni xabardor qilish tartibi, qaror ustidan shikoyat qilish mexanizmlari va nazorat sub'yektlari (prokuror/sud nazorati kabi)ning aniq chegaralari to'liq-tizimli bayon etilmagani suiiste'mol xavfini oshiradi. Bunday holat profilaktika samaradorligini emas, aksincha, ijtimoiy ishonchni pasaytirishi, stigmatizatsiya va huquqiy nizolarga sabab bo'lishi mumkin. Demak, profilaktika ta'siri huquq va erkinliklarni cheklashga emas, qonun doirasida himoya va rehabilitatsiyaga xizmat qilishi uchun kafolatlar tizimi mustahkam bo'lishi shart.

Oltinchidan, yoshlar huquqbuzarliklari profilaktikasida *erta aralashuv (early intervention)* va *diversiya (diversion)* mexanizmlarining institusional darajada yetarlicha rivojlanmagani ko'zga tashlanadi. Xususan, ta'lim, psixologik xizmat, ijtimoiy himoya va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning "bir keys — bir jamoa" tamoyilida ishlashi, har bir holat bo'yicha individual rehabilitatsiya va qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan bog'langan mexanizmlar barcha hududlarda bir xil yo'lga qo'yilmagan. Natijada ayrim yoshlar huquqbuzarlikka moyillikning erta bosqichida ijtimoiy-qo'llab-quvvatlovchi choralar bilan qamrab olinmasdan, tezroq nazorat yoki jazo konturiga kirib qolish xavfi oshadi. Bu esa profilaktikaning asosiy maqsadi — qayta ijtimoiylashuv va huquqiy xulqni barqaror shakllantirish natijasiga erishishni qiyinlashtiradi.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy-nazariy tahlillar natijasida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi, jumladan:

birinchidan, **"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"**gi Qonunning **3-moddasini** quyidagi tushunchalar bilan to'ldirish taklif etiladi:

"riskni baholash" — huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli va uning ijtimoiy xavflilik darajasini indikatorlar majmuasi asosida baholash tartibi;

"risk guruhi" — riskni baholash natijasiga ko'ra o'rta yoki yuqori risk toifasiga mansub deb topilgan shaxslar (yoki ijtimoiy muhit);

"keys-menejment" — risk guruhiga kiritilgan shaxs bo'yicha idoralararo hamkorlikda "bir keys — bir reja — bir koordinator" tamoyili asosida ish yuritish tartibi;

"keys-menejer (koordinator)" — mazkur Qonunda belgilangan tartibda keysni yuritish, individual rejani shakllantirish va ijroni muvofiqlashtirish uchun mas'ul shaxs;

"erta intervensiya" — huquqbuzarlik shakllanishidan oldin risk omillarini barvaqt aniqlash va ijtimoiy-qo'llab-quvvatlovchi choralarni qo'llash;

"diversiya" — birinchi marta sodir etilgan, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan xatti-harakatlar bo'yicha shaxsni (ayniqsa voyaga yetmaganni) jazo/adliya konturiga kiritmasdan, ijtimoiy rehabilitatsiya, mediativ yoki tarbiyaviy choralarga yo'naltirish mexanizmi.

Ikkinchidan, **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”**gi Qonunga yangi **“Riskni baholash standarti va umumiy–maxsus–yakka profilaktika o‘rtasida o‘tish mezonlari”** deb nomlangan **23‘-moddasini** kiritish taklif etiladi.

“23‘-modda. Riskni baholash standarti va umumiy–maxsus–yakka profilaktika o‘rtasida o‘tish mezonlari

Huquqbuzarliklar profilaktikasi choralarini tanlash **riskni baholash** natijasiga asoslanadi va risk darajasiga mutanosib tarzda amalga oshiriladi (proporsionallik tamoyili).

Riskni baholash **yagona standart** asosida amalga oshiriladi. Yagona standartda quyidagilar majburiy belgilanadi:

a) indikatorlar ro‘yxati va ularning salmog‘i (balllari), shu jumladan shaxs, muhit va viktimologik omillar;

b) risk darajalari (past/o‘rta/yuqori) va har bir daraja uchun minimal ball chegaralari;

v) qaror qabul qilish uchun **minimal dalil mezon** va dalillarning maqbul manbalari;

g) qayta baholash muddatlari, qayta baholash asoslari va monitoring tartibi;

d) baholashni amalga oshiruvchi mas‘ul sub‘yektlar, idoralararo muvofiqlashtirish tartibi hamda qaror qabul qilish algoritmi;

ye) baholash natijalarini rasmiylashtirish shakli (bayonnoma/xulosa), saqlash muddati va hisob yuritish tartibi.

Risk darajasiga ko‘ra profilaktika choralarining **“o‘tish”** tartibi quyidagicha belgilanadi:

a) past risk — umumiy profilaktika choralari (ijtimoiy-ma‘rifiy, huquqiy targ‘ibot, muhitni sog‘lomlashtirish);

b) o‘rta risk — maxsus profilaktika rejasi (maqsadli choralar paketi, muayyan risk omillarini bartaraf etish choralari, muddatli monitoring);

v) yuqori risk — yakka tartibdagi profilaktika (keys ochish, koordinator tayinlash, individual reja va idoralararo ijro).

Yakka tartibdagi profilaktika doirasida:

a) keys yuritish uchun mas‘ul koordinator belgilanadi;

b) individual profilaktika rejasi ishlab chiqiladi;

v) ijro natijalari belgilangan muddatlarda qayta baholanadi.

Risk standartini tasdiqlash, doimiy yangilash va amaliyotga joriy etish Vazirlar Mahkamasi tomonidan ta‘minlanadi.

Risk pasaygan taqdirda profilaktika ta‘siri tegishli qaror bilan yumshatilishi, rizik bartaraf etilganida esa bekor qilinishi shart.

Riskni baholash natijasi hamda profilaktika choralari to‘g‘risidagi qaror shaxsga (voyaga yetmagan bo‘lsa — qonuniy vakiliga) ma‘lum qilinishi shart; mazkur qaror ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Ushbu moddani qo‘llashda shaxsiy ma‘lumotlar va axborot almashish masalalari qonunchilikda belgilangan maxfiylik va himoya talablariga muvofiq ta‘minlanadi.”

Uchinchidan, **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”**gi Qonunga yangi **“Risk guruhi bo‘yicha idoralararo keys-menejment”** deb nomlangan **24‘-moddasini** kiritish taklif etiladi.

“24‘-modda. Risk guruhi bo‘yicha idoralararo keys-menejment

Riskni baholash natijasiga ko'ra **yuqori risk** aniqlangan taqdirda, shuningdek **o'rta risk** holatlarida asoslangan hollarda shaxs (voyaga yetmagan bo'lsa — oilasi va muhiti bilan birga) bo'yicha **keys ochish to'g'risida yozma qaror** qabul qilinadi.

Keys ochish bilan bir vaqtda keys-menejer (koordinator) tayinlanadi.

Koordinator:

- a) individual profilaktika/reabilitatsiya rejasini shakllantiradi;
- b) ishtirokchi sub'yektlar kesimida vazifalar va muddatlarni muvofiqlashtiradi;
- v) natija indikatorlarini belgilaydi;
- g) keys bo'yicha davriy qayta baholashni tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar bo'yicha keys-menejment qonuniy vakil hamda pedagog-psixolog ishtirokida amalga oshiriladi.

Keys-menejment reglamenti Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va unda keys ochish/yopish asoslari, koordinator vakolatlari, idoralararo axborot almashish tartibi, maxfiylik, hisobdorlik va nazorat mexanizmlari belgilanadi.

Risk pasaygan yoki zarurat qolmagan holatda keys bo'yicha ta'sir choralari yumshatilishi yoki keys yopilishi shart".

To'rtinchidan, **"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"**gi Qonunga yangi **"Profilaktika natijadorligini baholash (KPI)"** deb nomlangan **35'-moddasini** kiritish taklif etiladi.

"35'-modda. Profilaktika natijadorligini baholash (KPI)"

Profilaktika sub'yektlari faoliyati profilaktika natijadorligini aks ettiruvchi natija indikatorlari (KPI) asosida baholanadi. KPI tizimi profilaktika tadbirlarining manzilliligi, proporsionalligi va reabilitatsiya natijalarini baholashga xizmat qiladi.

Yoshlar profilaktikasi bo'yicha majburiy minimal KPI quyidagilardan iborat:

- a) takroriy huquqbuzarlik (residiv) darajasi dinamikasi;
- b) erta aniqlangan risk holatlari ulushi;
- v) risk guruhi tarkibida ijobiy dinamika (risk pasayishi);
- g) keys yopish natijalari (reabilitatsiya samarasi);
- d) ta'limga qaytish/davomat, bandlikka yo'naltirish kabi ijtimoiy natijalar.

KPI ko'rsatkichlari hududning aholi soni, demografik tarkibi va kriminogen risk xususiyatlarini inobatga olgan holda normallashtirilgan ko'rinishda hisoblanadi; baholashda asosiy mezon sifatida dinamika (trend) qo'llanadi.

KPI hisoblash metodikasi, hisobot formati, ma'lumotlarni validatsiya qilish va audit tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

KPI natijalari hududiy rahbarlar va mas'ul sub'yektlarning hisobdorligi bilan bog'lanadi. KPI ni ta'minlash maqsadida inson huquqlari va erkinliklarini cheklashga, stigmatizatsiyaga hamda ma'lumotlarni soxtalashtirishga yo'l qo'yilmaydi".

Beshinchidan, **"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"**gi Qonunga yangi **"Profilaktikaning yagona elektron axborot tizimi"** deb nomlangan **38'-moddasini** kiritish taklif etiladi.

"38'-modda. Profilaktikaning yagona elektron axborot tizimi"

Riskni baholash, keys-menejment, profilaktika chora-tadbirlarini monitoring qilish, qayta baholash va natijadorlikni hisobga olish maqsadida profilaktikaning **yagona elektron axborot tizimi** joriy etiladi.

Yagona elektron axborot tizimida quyidagilar majburiy ta'minlanadi:

- a) **rollarga asoslangan kirish huquqlari** va vakolatlar darajasi;
- b) *ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda maqsadlilik hamda ma'lumotlarni minimallashtirish* prinsiplari;
- v) *ma'lumotlarni saqlashning muddatlari* va ularni arxivlash/o'chirish tartibi;
- g) amalga oshirilgan barcha harakatlar bo'yicha **audit-loglar** (kim, qachon, qanday ma'lumotga kirgan/o'zgartirgan);
- d) **maxfiylik** va **shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish** talablari;
- ye) *ma'lumotlarning ishonchliligi va yaxlitligini ta'minlash uchun validatsiya* va axborot xavfsizligi choralari.

Idoralararo ma'lumot almashish faqat ushbu Qonun va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan reglamentda belgilangan **asoslar, hajm va tartib** doirasida amalga oshiriladi. Reglamentda ma'lumot almashishning maqsadlari, sub'yektlar tarkibi, ma'lumot turlari, kirish huquqi va mas'uliyat choralari aniqlanadi.

Yagona elektron axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlar asosida tavsiya (analitik yoki algoritmik) berilgan taqdirda, profilaktika chorasini qo'llash to'g'risidagi **yakuniy qaror faqat vakolatli mansabdor shaxs** tomonidan qabul qilinadi va u qaror uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

Mazkur tizimdan foydalanishda fuqarolarning huquq va erkinliklarini asossiz cheklashga, ma'lumotlarning qonunga xilof tarzda tarqatilishiga hamda maqsaddan tashqari ishlatilishiga yo'l qo'yilmaydi".

Oltinchidan, "**Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida**"gi Qonunga yangi "Yagona elektron axborot tizimidagi ma'lumotlarning to'g'riligi, tuzatish va shikoyat qilish tartibi" deb nomlangan **38²-moddasini** kiritish taklif etiladi.

"38²-modda. Yagona elektron axborot tizimidagi ma'lumotlarning to'g'riligi, tuzatish va shikoyat qilish tartibi

Yagona elektron axborot tizimiga kiritilayotgan ma'lumotlarning **haqqoniyligi, to'liqligi va dolzarbligi** uchun uni kiritgan hamda tasdiqlagan vakolatli mansabdor shaxs shaxsan javobgar hisoblanadi.

Yagona elektron axborot tizimidagi ma'lumotlar **muddatli ravishda qayta ko'rib chiqilishi** shart. Qayta ko'rib chiqish davriyligi risk darajasi va keys holatiga ko'ra belgilanadi hamda tegishli reglamentda aks ettiriladi.

Shaxs (voyaga yetmagan bo'lsa — uning qonuniy vakili) o'ziga oid ma'lumotlar asosida profilaktika choralari qo'llanganligi haqida belgilangan tartibda **xabardor qilinishi** shart, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Shaxs (yoki qonuniy vakil) tizimdagi o'ziga oid ma'lumotlar noto'g'ri yoki eskirgan deb hisoblasa, vakolatli organga **ma'lumotni tuzatish, yangilash yoki rad etish** to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaat kelib tushgan kundan e'tiboran vakolatli organ ma'lumotni tekshirishi, tegishli hujjatlar bilan solishtirishi va **o'n besh kun** muddatda asoslantirilgan qaror qabul qilishi shart.

Zarur hollarda qo'shimcha tekshiruv o'tkazish muddati reglamentda belgilangan tartibda uzaytirilishi mumkin, bunda murojaat etuvchi shaxs xabardor qilinadi.

Ma'lumot noto'g'ri deb topilgan taqdirda, vakolatli organ uni **tuzatishi (yangilashi)**, tegishli profilaktika qarorlarini **qayta baholashi** hamda zarurat bo'lsa profilaktika ta'sirini yumshatishi yoki bekor qilishi shart.

Ma'lumotni tuzatish, yangilash yoki rad etish to'g'risidagi qaror ustidan shaxs (yoki qonuniy vakil) belgilangan tartibda **prokurorga va (yoki) sudga** shikoyat qilish huquqiga ega.

Ushbu modda qoidalarini amalga oshirish tartibi, axborotdan foydalanish shakllari, ma'lumotlarni ko'rish hajmi, maxfiylik cheklovlari va texnik mexanizmlar Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan reglamentda belgilanadi".

Yettinchidan, "**Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida**"gi Qonunga yangi "Yakka profilaktika choralari qo'llashda prosessual kafolatlar" deb nomlangan **29¹-moddasini** kiritish taklif etiladi.

"29¹-modda. Yakka profilaktika choralari qo'llashda prosessual kafolatlar

Yakka tartibdagi profilaktika choralari faqat qonunchilikda belgilangan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda va **proporsionallik hamda minimal aralashuv** prinsiplariga muvofiq qo'llaniladi.

Yakka profilaktika chorasini qo'llash to'g'risida **yozma qaror** qabul qilinadi. Qarorda quyidagilar majburiy tarzda ko'rsatiladi:

- a) chora qo'llashning huquqiy asosi va ishning qisqacha holati;
- b) dalillar ro'yxati va riskni baholash natijasi (risk darajasi);
- v) choraning maqsadi, turi va qo'llash sabablari;
- g) choraning amal qilish **muddati**, qayta ko'rib chiqish sanasi va qayta baholash shartlari;
- d) mas'ul ijrochi(lar) va nazorat tartibi.

Qaror shaxsga (voyaga yetmagan bo'lsa — uning qonuniy vakiliga) **imzo evaziga** topshiriladi yoki qonunchilikda belgilangan tartibda yetkaziladi. Qaror mazmuni tushuntirilishi shart.

Shaxs (yoki qonuniy vakil) yakka profilaktika chorasi to'g'risidagi qaror ustidan belgilangan tartibda **prokurorga va (yoki) sudga** shikoyat qilish huquqiga ega. Shikoyat qilish tartibi va muddatlari shaxsga tushuntiriladi hamda qarorda qayd etiladi.

Yakka profilaktika choralari bo'yicha risk darajasi belgilangan muddatlarda **qayta baholanadi**. Risk pasaygan yoki chora qo'llashga zarurat qolmagan taqdirda choralar **yumshatilishi** yoki **bekor qilinishi** shart; bu haqda yozma qaror qabul qilinadi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan yakka profilaktika choralari qo'llanilganda:

- a) "tamg'lashga (stigmatizatsiyaga) yo'l qo'yimaslik", bolaning manfaatlari ustuvorligi va minimal aralashuv prinsiplari qat'iy ta'minlanadi;
- b) profilaktika harakatlari qonuniy vakil, zarurat bo'lganda pedagog-psixolog ishtirokida amalga oshiriladi;
- v) choralar avvalo ta'lim, tarbiya, rehabilitatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi.

Yakka profilaktika choralari qo'llash jarayonida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, maxfiylik va ma'lumotlardan maqsadli foydalanish talablari ta'minlanadi".

Mazkur takliflar kelajakda "Profilaktikaning nazariy negizlari: umumiy-maxsus-yakka profilaktika mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi" mavzusida asoslantirilgan ilmiy konsepsiyani amalda to'liq ishlaydigan me'yoriy mexanizmga aylantirishga xizmat qiladi. Ya'ni, profilaktikaning uch pog'onali iyerarxiyasi (umumiy-maxsus-yakka) o'rtasidagi dialektik bog'liqlik nazariya darajasidagina emas, balki riskga asoslangan standartlar, idoralararo muvofiqlashuv va natija indikatorlari orqali huquqiy jihatdan ham mustahkamlanadi. Shu asosda quyidagi kutilgan natijalar prognoz qilinadi:

Birinchidan, umumiy-maxsus-yakka profilaktika mexanizmlari o'rtasidagi "o'tish nuqtalari" riskni baholash standarti orqali aniq belgilanib, profilaktika choralari tanlashdagi sub'yektivlik va tasodifiylik qisqaradi. Natijada umumiy profilaktika jamoaviy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan "past risk" segmentini barqaror qamrab olsa, maxsus profilaktika "o'rta risk" toifalarida maqsadli choralar paketini ishga tushiradi, yakka profilaktika esa "yuqori risk" holatlarda keys-menejment va individual reja asosida ta'sir ko'rsatadi. Bu uch bosqichning uyg'un ishlashi profilaktik ta'sirning manzilliligi, proporsionalligi va samaradorligini oshiradi.

Ikkinchidan, "idoralararo keys-menejment" instituti umumiy va maxsus profilaktikada aniqlangan risk omillarining yakka profilaktika sathiga uzviy o'tib borishini ta'minlaydigan amaliy "bog'lovchi ko'priq" vazifasini bajaradi. "Bir keys — bir reja — bir koordinator" modeli orqali ichki ishlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, probatsiya va mahalla sub'yektlarining vazifalari bir nuqtada muvofiqlashib, mas'uliyat tarqoqligi va takrorlanish kamayadi. Natijada yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy reabilitatsiya va qayta integratsiya (ta'limga qaytish, davomatni tiklash, bandlikka yo'naltirish) ko'rsatkichlari barqaror o'sishi uchun institusional sharoit yaratiladi.

Uchinchidan, KPI va monitoring tizimining qonun darajasida joriy etilishi profilaktikaning barcha pog'onalari uchun natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantiradi. Takroriy huquqbuzarlik dinamikasi, erta aniqlangan risk holatlari ulushi, risk pasayishi, keys yopish natijalari kabi indikatorlar orqali umumiy profilaktikaning "ommaviy ta'siri", maxsus profilaktikaning "maqsadli ta'siri" va yakka profilaktikaning "individual ta'siri" o'zaro taqqoslanadigan va baholanadigan tizimga aylanadi. Bu esa rahbarlar hisobdorligini kuchaytiradi, resurslarni xavf yuqori segmentlarga qayta taqsimlash imkonini beradi va profilaktikaning institusional samaradorligini oshiradi.

To'rtinchidan, yagona elektron axborot tizimi (risk baholash—keys—qayta baholash—KPI) profilaktikaning nazariy jihatdan talab etilgan "uzluksiz sikl"ini (diagnostika → intervensiya → monitoring → qayta baholash → deskalatsiya/reabilitatsiya) amalda ta'minlaydi. Rollarga asoslangan kirish, audit-log, ma'lumotlarni minimallashtirish va maxfiylik kafolatlari hisobidan ma'lumotlar sifati va ishonchliligi oshadi, idoralararo aloqa tezlashadi va profilaktika choralari kechikishi (time-lag) qisqaradi.

Beshinchidan, yakka profilaktikada prosessual kafolatlarning aniq reglament qilinishi profilaktikaning huquqiy legitimligini mustahkamlab, inson huquqlari bilan mutanosiblikni ta'minlaydi. Qarorning yozma asoslantirilishi, shaxsni xabardor qilish, muddat va qayta ko'rib chiqish sanasini belgilash, shikoyat qilish huquqini tushuntirish hamda risk pasayganda chorani bekor qilish majburiyati yakka profilaktikada suiiste'mol va "tamg'alash" xavfini kamaytiradi.

Ayniqsa voyaga yetmaganlar bo'yicha minimal aralashuv va stigmatizatsiyaga yo'l qo'ymaslik prinsiplarining qonun darajasida mustahkamlanishi profilaktikaning barqaror ijtimoiy ishonchga tayangan modelini shakllantiradi.